



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(dastlabki ma'lumotlar)


Yanvar-sentyabr 2018 yil

RAQAMLAR

- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **59,3 trln. so'm**, o'sish sur'ati **1,3 %**
- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati **101,3 %** ni tashkil qildi.
- shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari – **97,5 %**
- chorvachilik mahsulotlari – **107,0 %**


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 59 327,1 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,3 %ni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 58 911,6 mlrd.so'mni (101,3 %), o'rmon xo'jaligi – 100,5 mlrd.so'mni (103,6 %), baliq xo'jaligi – 238,5 mlrd.so'mni (130,1 %) tashkil qildi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Namangan (105,8 %), Farg'ona (104,5 %) va Buxoro (104,0 %) viloyatlarida kuzatildi. Qashqadaryo (97,9 %) va Samarqand (97,5 %) viloyatlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi



Respublikaning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Toshkent viloyatining ulushi 13,9 %ni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari mos ravishda 13,0 % va 10,0 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,4 %), Sirdaryo (3,9 %) va Navoiy (5,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,3 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 97,5 %ni, chorvachilik mahsulotlari – 107,0 %ni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 70,9 %i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,9 %i – fermer xo'jaliklariga, 2,2 %i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



■ Fermer xo'jaliklari

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

■ Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 33 340,1 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 97,5 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 57,3 %ni tashkil qildi.




2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da	ming tonna	o'sish sur'ati %da
Don ekinlari	6 124,1	90,8	4 975,5	92,2	1 032,0	81,9	116,6	128,6
Kartoshka	2 410,7	102,9	358,3	83,1	2 043,9	107,7	8,5	58,0
Sabzavotlar	8 661,4	102,9	2 109,0	94,9	6 473,0	105,5	79,4	125,7
Poliz	1 607,2	103,0	683,5	98,7	903,5	106,5	20,2	101,9
Mevalar va rezavorlar	2 090,0	101,4	761,2	93,1	1 280,5	105,6	48,3	157,3
Uzum	1 313,6	103,9	590,5	101,9	705,4	105,2	17,7	124,2

Hosilni yig'ib olish. 2018 yilning yanvar – sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 6 124,1 ming tonna (90,8 %) don ekinlari ishlab chiqarildi, 2 410,7 ming tonna (102,9 %) kartoshka kavlab olindi, 8 661,4 ming tonna (102,9 %) sabzavotlar, 1 607,2 ming tonna (103,0 %) oziqbop poliz, 2 090,0 ming tonna (101,4 %) mevalar va rezavorlar, 1 313,6 ming tonna (103,9 %) uzum yig'ib olindi.


Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 84,8 %, sabzavotlarning 74,7 %, polizning 56,2 %, mevalar va rezavorlarning 61,3 %, uzumning 53,7 %i ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 81,2 %i ular hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Don ekinlari (ming t)




Kartoshka (ming t)




Sabzavotlar (ming t)



Poliz (ming t)



Mevalar va rezavorlar (ming t)



Uzum (ming t)



Chorvachilik




2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 24 840,6 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 107,0 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 42,7 %ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 1 788,8 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 6,8 %ga ko'p), 7 830,1 ming tonna sut (6,9 %ga), 5 368,2 mln.dona tuxum (9,2 %ga), 30,2 ming tonna jun (1,8 %ga) ishlab chiqarildi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	1 788,8	106,8	53,6	129,9	1 679,9	105,6	55,3	129,6
Sut, ming t	7 830,1	106,9	284,8	117,3	7 486,2	106,5	59,1	107,6
Tuxum, mln. dona.	5 368,2	109,2	553,7	117,1	3 172,6	105,7	1 641,9	113,8
Jun, ming t	30,2	101,8	2,3	121,2	26,4	101,9	1,5	81,2
Qorako'l, ming dona.	1 001,4	100,1	72,4	126,8	826,2	100,5	102,8	84,5
Pilla, ming t	17,7	142,2	14,1	123,7	-	-	3,6	3,4 m.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 93,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,6 %i, tuxumning 59,1 %i, junning 87,5 %i, qorako'l terining 82,5 %i ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Go'sht (ming t)




Sut (ming t)



Tuxum (mln. dona)



Pilla (tonna)



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 12 408,8 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 4 462,3 ming boshga, qo'y va echkilar – 21 087,8 ming boshga, parrandalar – 75 683,3 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 297,3 ming boshga (2,5 %ga), shu jumladan sigirlar – 91,5 ming boshga (2,1 %ga), qo'y va echkilar – 756,9 ming boshga (3,7 %ga), parrandalar – 6 674,5 ming boshga (9,7 %ga) ko'paydi.

2018 yilning 1 oktyabr holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %
Yirik shoxli								
qoramollar	12 408,8	102,5	620,0	106,1	11 621,8	102,0	167,0	121,9
<i>shu jumladan</i>								
sigirlar	4 462,3	102,1	199,9	100,2	4 221,9	102,2	40,5	104,0
Qo'y va echkilar	21 087,8	103,7	2 166,2	127,7	17 728,7	102,6	1 192,9	88,0
Parrandalar	75 683,3	109,7	9 653,4	120,9	46 045,3	102,9	19 984,6	122,7

2018 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,0 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,3 %i fermer xo'jaliklariga, 84,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 12,8 %i fermer xo'jaliklariga, 60,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,4 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi


Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2018 yilning 1 oktyabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shundan, sigirlar (ming bosh)



Qo'y va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi boshqarmasi

• 71-230-80-53
• 71-230-80-54